

## AVTOMOBIL YO'LLARINI LOYIHALASHGA BO'LGAN TALABLAR

**Abdullayev Azimjon Karim o'g'li**

Termiz davlat universiteti Arxitektura va qurilish fakulteti talabasi

**Ubaydullayev Anvar Azamovich**

Ilmiy raxbar:

### ANNOTATSIYA

Respublikamiz avtomobil yo'llarining holati va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish, mamlakatimizda yuk va yo'lovchi tashishni rivojlantirish darajasini belgilashdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Avtomobil, yo'lovchi, infratuzilma, "OBERMEYER Panen+Beraten GmbH", "Lahmeyer Internetional GmbH", "Lomb Ingenieurgesellschaft mbH", "INROS LACKNER SE".

Avtomobil yo'llarining holati va ulardan foydalanish samaradorligi mamlakatimizda avtombilda yuk va yo'lovchi tashishni rivojlantirish darajasini belgilaydi. Qattiq va tekis qoplamali, to'g'ri va ravon yo'lda avtomobil belgilangan tezlikda yurishi, maksimal darajada yo'lovchilar yoki tovarlarni tashishi mumkin. Bu yoqilg'i sarfi va tashish qiymatini kamaytirish, transport vositasining xizmat qilish muddatini uzaytirish bilan bog'liq iqtisodiy samara ham beradi

Ma'lumki, yuksak sifatli transport infratuzilmasiga ega bo'lgan mamlakatgina barqaror taraqqiyotga erishadi, xalqining turmush farovonligini ta'minlaydi. Keng va ravon yo'llar, zamonaviy magistrallar, eng so'nggi texnologik yutuqlarni o'zida mujassam etgan muhtasham ko'priklar, yerosti yo'llari infratuzilmaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shuning uchun ham mustaqillikning ilk yillardan boshlab yurtimizda barcha turdag'i yo'llarni sozlash, ta'mirlash, yangilarini qurishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu bejiz emas, negaki, yurtimiz jo'g'rofiy jihatdan Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan. Shu bois, uning hududi orqali Osiyo va Yevropaning turli tomonlari bilan bog'lovchi 44 ta transport tranzit yo'nalishlari o'tgan.

Yo'llarni sifatli barbo etishga bo'lgan etibor nafaqat hozir balkim kelajakda bu jarayonlarni yanada rivojlantirish borasida prezidaentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ham qator yangi qarorlar va qonunlar qabul qilinmoqda jumladan endilikda yo'l qurilishini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda ishtiroy etish uchun yetakchi xorijiy konsalting kompaniyalari jalb etiladi. Xususan, investitsiyalar

bo‘yicha davlat qo‘mita 2018 yil 30 dekabrgacha Germaniya tajribasini o‘rgangan holda xorijiy konsultant ishtirokini ta’minlaydi.

Ushbu rivojlantirish strategiyasi avtomobil yo‘llari sohasiga zamonaviy standartlar va texnologiyalarni joriy etish, 2020-2040 yillarda yo‘llarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturlarini ishlab chiqishga yo‘naltiriladi.

Hukumat avtomobil yo‘llari sohasida zamonaviy qurilish materiallarini ishlab chiqarish bo‘yicha qo‘shma korxonalarini tashkil etish, avtomobil yo‘llari va sun’iy inshootlarini loyihalashda nemis kompaniyalari – “OBERMEYER Panen+Beraten GmbH”, “Lahmeyer Internetional GmbH”, “Lomb Ingenieurgesellschaft mbH”, “INROS LACKNER SE” va boshqalar bilan hamkorlik o‘rnatish uchun ishchi guruh tashkil etadi.

Avtomobil yo‘llarni loyhalashda jaxonning yo‘l sohasi bo‘yicha yetakchi davlatlar tajribasidan hamda zamonaviy texnika texnologiyalardan foydalanishimiz kerak.

Avtomobil yo‘llarini loyhalashda birinchidan yo‘l qo‘yiladigan yo‘l qatlamini hisobga olishi kerak, yo‘ldagi harakat jadalligiga etiborga berish, qurilish maydonining tabiiy sharoitlari va qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari, qimmatli erlarni maksimal darajada saqlab qolish va atrof-muhitga eng kam zarar etkazadigan yollarni loyihalash zarur

**Yo‘l loyhasini ishlab chiqishda quydagi tadbirlar ko‘zda tutiladi:**

- yerdan samarali foydalana olish va tabiatni asrash; yoqilg‘i-energetika va material resurslarni samarali va tejab ishlatish; material va xomashyoni kompleks ishlatish;

**Yo‘Ining ishchi loyhasini ishlab chiqish uchun quyidagi muhandislik qidiruv ishlari bajariladi**

- Topografik geodeziya ishlari, Topografik 1: 500; 1: 1000; 1: 2000 masshtablarda tuzilib gorizontallar o‘tishi; Elektron shakildagi joyning raqamli modili; Joyning muhandislik geologiya qidiruv o‘rganilishi; Mexanizatsiyalashtirilgan metod bilan shurflar va skvajnayalarni o‘rnatish; Yo‘l qurilish materiallari karyerlarini aniqlash;

- Suv taminoti manbalarini aniqlash; Tuproqlar va suvlarning laboratoriya analizi xulosasi ;

Loyhalanayotgan avtomobil yo‘lining poyini qurish oldidan yuqorida keltirilgan barcha ishlarni bajarish lozim.

Loyiha ishlari jarayonida qolgan barcha mavjud yo‘l elementlar va materiallaridan imkon darajada foydalanish inobatga olinadi Avtomobil yo‘lini to‘la tamirlash ishchi loyihasini ishlab chiqish uchun buyurtmachi tomonidan berilgan texnik topshiriqqa binoan harakatdagi 2.05.02-07 “Avtomobil yo‘llari” shaxarsozlik

normalari va qoidalari meyoriy xujjat asosida ko‘ndalang kesim turlari o‘lchamlari qabul qilinadi.

Yo‘l poyini qiyalik nishabliklari ko‘tarmalarda 1:1.5M, o‘yma va yarim o‘yma joylarda gruntlarning geologik tuzilishidan kelib chiqib 1:1.5M gacha bo‘lgan o‘lchamlarda qabul qilinadi. Yo‘l chetiga aholi yashash joylariga suv qochirish maqsadida temir beton navlar o‘rnatish inobatga olinadi.

Yol to‘shamasi mustahkamligini hisoblashda avtomobilning eng ko‘p yakka o‘qdagi og‘irlilik 130 kH (13tc) qabul qilingan .

Avtomobil yo‘llari diagnostika va laboratoriya ishlarini bajarish hujjatlari asosida yo‘lning turli qisimlarida yo‘l to‘shamasi turlicha hisoblanadi .

Bularga quydagilarni kiritish mumkun:

Asosiy yo‘ldagi mukammal tur to‘shamasi yotqiziladigan qismlar ; Asosiy yo‘lda yo‘l cheti kutiladigan to‘xtash tasmalariga yotqiziladigan mukammal tur yo‘l to‘shamasi ; Asosiy yo‘l qoplamasи kuchaytiriladigan qisimlar yo‘l to‘samasidir ;

Qurilish jarayonida yo‘lning qaysi qismida qanday yo‘l to‘samalari yotqizishni aniqlash maqsadida loyhada yo‘l to‘shamasi qurilish rejasi chizmasida chiziladi , to‘samalarning chegaralari , o‘lchamlari va hududlari turli ranglar bilan ajratib shartli belgilar asosida izohlanadi

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017 yil 14 fevraldaggi PF 4954-sonli “ Yo‘l xo‘jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni
2. V.F.Babkov, O.V.Andreyev ”Avtomobil yo‘llarini qidiruv va loyhalash” I-II qism .Toshkent-2014 yil
3. SH.N Q 2.05.02 – 07 Avtomobil yollari “Toshkent-2008” 67 b.